

15-Iyul, 2025-yil

TEMIR YO‘L TRANSPORTI RIVOJLANISHINING XALQARO TAJRIBASI VA ZAMONAVIY MODELLARI

TATU, mustaqil tadqiqotchi,
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich

Temir yo‘l transporti har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va mintaqaviy integratsiyasi uchun strategik ahamiyatga ega soha hisoblanadi. Transport infratuzilmasining raqobatbardoshligi nafaqat ichki iqtisodiy aloqalarni, balki xalqaro savdo va logistika jarayonlarini ham ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi [1]. Ayniqsa, global iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi va yashil energiya siyosatining kengayishi sharoitida temir yo‘l tarmog‘i nafaqat an‘anaviy tashish tizimi, balki barqaror va innovatsion transport yechimlarining markaziga aylanmoqda [2].

Dunyo tajribasida temir yo‘l transportini rivojlantirishda bir qator ilg‘or yondashuv va modellar mavjud. Ulardan ba‘zilari:

1. Yapon modeli – yuqori tezlik, xavfsizlik va texnologik ilg‘orlik.

Yaponiya dunyoda birinchi bo‘lib yuqori tezlikda harakatlanuvchi poezdlar – "Shinkansen" tizimini yo‘lga qo‘ygan davlatdir [3]. Ushbu modelning asosiy afzalliklari – harakat jadvalidagi aniqlik, past avariya xililik ko‘rsatkichi va yuqori texnologiyalarning keng joriy etilishidir [4].

2. Germaniya modeli – intermodal integratsiya va ekologik yondashuv.

Germaniyada temir yo‘l tarmog‘i boshqa transport vositalari – avtomobil, havo va suv transporti bilan integratsiyalashgan [5]. "Deutsche Bahn" tomonidan raqamlashtirish, yo‘lovchi qulayligini oshirish va karbon chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda [6].

3. Xitoy modeli – keng ko‘lamli investitsiyalar va eksportga yo‘naltirilgan infratuzilma.

Xitoyda temir yo‘l tarmog‘ining rivojlanishiga hukumat tomonidan katta sarmoyalar kiritilgan bo‘lib, "Bir makon, bir yo‘l" tashabbusi doirasida global transport tarmoqlari yaratilmoqda [7].

4. Shvetsiya va Norvegiya modeli – yashil energetika va raqamlashtirishga urg‘u.

Skandinaviya davlatlari ekologik barqarorlikni asosiy yo‘nalish sifatida belgilab, qayta tiklanuvchi energiyaga asoslangan temir yo‘l tizimlarini rivojlantirmoqda [8].

5. AQSh modeli – xususiyashtirish va yuk tashishga ixtisoslashuv.

AQShda temir yo‘l infratuzilmasi asosan yuk tashishga yo‘naltirilgan va uni xususiy kompaniyalar boshqaradi [9].

Ushbu modellar shuni ko‘rsatadiki, har bir davlat o‘zining iqtisodiy va geografik sharoitlariga mos model tanlagan. Shu bois O‘zbekiston uchun ham xorijiy tajriba asosida milliy strategiya ishlab chiqilishi lozim [1][7].

Xulosa qilib aytganda, temir yo‘l transportini modernizatsiya qilishda xorijiy tajriba va ilg‘or modellarni tahlil qilish – uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy

15-Iyul, 2025-yil

qismidir [2][6]. Ular yordamida nafaqat transport infratuzilmasining raqobatbardoshligi oshiriladi, balki iqtisodiy o‘shish, ekologik barqarorlik va mintaqaviy integratsiya ham kuchayadi. Temir yo‘l transporti bugungi kunda faqatgina yuk va yo‘lovchi tashish vositasi bo‘lib qolmay, balki har bir mamlakat iqtisodiyotining ustuvor rivojlanish yo‘nalishiga aylanmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirishda har bir davlat o‘zining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sharoitlariga mos innovatsion modelni tanlaydi. Yaponiya – yuqori tezlik, Germaniya – intermodal integratsiya, Xitoy – global infratuzilma ekspansiyasi, Skandinaviya mamlakatlari – ekologik barqarorlik va raqamlashtirish, AQSh esa – xususiylashtirish va yuk tashish sohasidagi samaradorlik bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston uchun ushbu modellarni chuqur tahlil qilib, ularning ijobiy jihatlarini milliy strategiyaga uyg‘unlashtirish orqali zamonaviy, xavfsiz, ekologik toza va iqtisodiy samarali temir yo‘l tizimini shakllantirish imkoniyati mavjud. Buning uchun xalqaro hamkorlik, texnologik modernizatsiya, raqamli boshqaruv tizimlari va moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, temir yo‘l transportini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy taraqqiyot, mintaqaviy aloqalar va logistika tizimlarining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois, xalqaro tajriba asosida o‘z modelimizni ishlab chiqish — dolzarb va istiqbolli vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Temir yo‘l transportini isloh qilish va rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”. — 2023 yil.
2. World Bank. Railway Reform: Toolkit for Improving Rail Sector Performance. — Washington, D.C.: World Bank, 2022.
3. Ministry of Land, Infrastructure, Transport and Tourism of Japan. Shinkansen Overview. — Tokyo, 2020.
4. Hiroshi Okada. High-Speed Railways in Japan: A Success Story. — Japan Railway & Transport Review, 2018.
5. Deutsche Bahn AG. Sustainability and Innovation Report 2022. — Berlin, 2023.
6. European Commission. Greening the Transport Sector: German Case Study. — Brussels, 2022.
7. Xitoy Transport vazirligi hisobotlari. “Belt and Road Initiative” doirasida temir yo‘l loyihalari. — Beijing, 2021.
8. Nordic Council of Ministers. Sustainable Rail Development in Scandinavia. — Copenhagen, 2020.
9. Association of American Railroads (AAR). State of the U.S. Freight Rail Industry. — Washington, 2023.